

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNI PIRLS TOPSHIRIQLARNI  
BAJARISHGA O'RGGATISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7846510>

**Tangirova Sug'diyona**

*SamDU talabasi*

*Telefon raqami:+99894 534 32 37*

*Elektron pochta:tangirovasugdiyona@gmail.com*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqola boshlang'ich ta'linda o'quvchilarni PIRLS topshiriqlarini bajarishga o'rnatish haqida ma'lumot beradi*

**Kalit so'zlar:** *PIRLS xalqaro baholash dasturi, matn, nutq savodxonligi, metod.*

**Аннотация:** В этой статье представлена информация об обучении учащихся выполнять задания PIRLS в начальных классах.

**Ключевые слова:** международная оценочная программа PIRLS, текст, речевая грамотность, методика.

**Abstract:** This article provides information on teaching students to complete PIRLS tasks in primary education.

**Key words:** PIRLS international assessment program, text, speech literacy, method.

Hozirgi jadal rivojlanib borayotgan davr, o'sib borayotgan yosh avlodni ham zamon bilan hamnafas qilib tarbiyashni talab qiladi So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu esa o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshrish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etdi.O'quvchilarni PIRLS topshiriqlarini bajarishga o'rnatish ham asosiy masalalardan biridir

PIRLS (inglizcha: Progress in International Reading Literacy Study') — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadi. Hozirgi vaqtida PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning bir qancha usullari, yo'llari mavjud bo'lib, bunda PIRLS tadqiqotining o'rni beqiyosdir.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni PIRLS tpshiriqlarini bajarishga o'rgatish uchun, avvalo o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borish kerak. Bunda o'qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda ishlasa samarali natija beradi. Chunki o'quvchilarning bilim olishlarida oiladagi muhit katta ahamiyatga ega.Jamiyatda o'qituvchilar,ota-onalar va o'quvchilar orasida o'qish savodxonligi bilan shug'ullanishning qadr-qimmatining tan olinishi, mакtabda va oilada o'qishga bo'lgan yuqori motivatsiya,maktabgacha tayyorgarlikning yaxshi darajasi , boshlang'ich ta'limning sifatli dasturlari, darsliklar,o'qishni o'rgatishning chuqur o'ylangan metodikasi, o'qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli ishlash kabi omillar PIRLS da boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar bilan birgalikda matn bilan ishlayotganda o'qish tezligini nazorat qilishdan ko'ra ko'proq tushunib o'qishga urg'u berishi kerak .Zero,o'quvchilar o'qiyotgan matnlarini hayot bilan bog'lagan holda mushohada qila olsinlar.

O'quvchilarga matn mazmuni to'liq tushunarli bo'lgandan so'ng, o'qituvchi savol-javob metodidan foydalanishi samarali natija beradi. Bunda savollarning ma'noma'mzuni,hayot bilan bog'liqlikda ekanligi, qiyinlik darajasining o'quvchilarga mos bo'lishi hamda o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishi katta ahamiyatga ega. Misol uchun 4-sinf "O'qsh kitobi"dagi Hakim Nzirning "Qodir bilan Sobir" hikoyasi misolida ko'rib chiqamiz.

### **Qodir bilan Sobir**

Ba'zi o'rtoqlari Qodirni «zo'ravon» desa, ba'zilari «do'mbirachi» deydi. Nega desangiz, unda har ikki «hunar»dan ham oz-moz bor. «Zo'ravon»ligi shuki, u yurgan yo'lida va o'tirgan yerida yon-veridagilarni turtibnetib, tegajog'lik qilaveradi. «Do'mbirachi»ligi shuki, agar sinf da biron bola xiyol yang lishsa, u lunjini pufak qilib olib, ikki barmog'i bilan «taka-tum»ni chalib yuboradi. O'zi yanglishganda-chi, biron kishi ning kulishga haddi bormi? Zo'ravonligini ko'rsatib qo'yadi-ku...

Kunlarning birida Qodir sinfdoshi Sobir bilan ko'chada keta turib, chiraniq qoldi: – Men hech narsadan qo'rqlasman! – dedi. – Akam bilan dalaga borganimizda kattakon Salorda cho'milganmiz. Innaykeyinchi, odamday-odamday ba liqlarni tutib olganmiz, tirikligicha. – Baliq nima bo'pti! – dedi unga Sobir. – Biz dadam bilan g'oz ovlaganmiz. Patillab uchib ketayotgan g'ozning qoq tumshug'iga tushirganmiz. Ha, qoq tumshug'iga! – Siz tushiribsizmi, dadang iz tushirganlar-da! – Men ham! Men nishonni ko'rsatib turganman. Bizning dada zo'r mergan. Ikkita ordeni bor. – Bizning aka-chi, nomi chiqqan komandir! Ikki yuzta askarga boshliq bo'lgan. Men ham katta bo'lganimda komandir bo'laman. – Bo'lib bo'psan, – dedi Sobir. – Komandir bo'lishga yurak kerak. O'zing sal narsadan qo'rqlasman-ku. – O'zing-chi, ha, bir marta shifokor ukol qilgani kelganda, tomga qochib chiqqaning esingdami? – U vaqtida kichkina edim-da. –

Nima bo'pti, o'quvchi bo'lib darrov katta bo'lib qoldingmi? Shu vaqt birdan itning hurgani eshitilib qoldi. Qarasalar, bir darvoza yonida bo'rsiqday it ularga qarab vovullayapti. Quloqlari dikkaygan, tumshug'i buzoqnikiday yalpoq, dumi tulkinikiday uzun. Qodir yo qo'rqib, yo zo'ravonligi qistab papkasini shartta yerga qo'ydi. Ariq bo'yidagi toldan bitta novdani uzib oldi-da, uning uchiga bitta toshni bog'lab turib itga uloqtirdi. Itning fe'li aynidi. Qodirga qarab yugurdi. Qodir papka sini qoldirib tiraqaylaganicha orqasiga qarab qochdi. Sobir esa o'rtog'inining qilig'iga ajablanib, indamay turar edi. It yuz qadam joyga borganda Sobir: «To'xta, Arslon, to'xta!» deb uni to'xtatdi, so'ngra papkasidan bir burda non chiqarib berdi. Arslonning boshini silab aldadi-da, darvoza tomon jo'natdi. Yerda yotgan papkani ko'tarib olib, Qodirni chaqira boshladi. Qodir xiyla uzoqqa borib, birov ning yo'lagiga o'zini urgan edi. It ko'zdan uzoqlashgandan keyin u asta-sekin ko'chaning bir chetidan kela boshladi. – Hali hech narsadan qo'rqlayman demaganmi ding? – dedi unga Sobir. – It bilan o'chakishib bo'ladimi? Tosh otgandan keyin har qanday yuvosh bo'lsa ham, jahli chiqadi-da. Qodir churq etmadi. Yuzini ter bosgan, rangi quv o'chgan, zo'r berib haloslar edi. Qodir papkani nariberi artib, Sobirning ketidan sekin sinf eshigini ochdi. – Sen nega kechikding? – deb so'radi doska oldida turgan o'qituvchi Fotima opa. Qodir peshanasidagi terni arta turib: – Dalada edim, – dedi ming'illab. Orqadagi partaga endigina o'tirgan Sobir o'rtog'iga jiddiy tikilib: – Nega yolg'on gapirasan? – dedi va ko'chada bo'lган voqeani aytib berdi. – Shunaqami, Qodirjon? – dedi o'qituvchi odattdagicha muloyimlik bilan va bolalarga qaradi. – Zo'r odam kuchini o'qishda ko'rsatadi. To'g'rimi, bolalar? – To'g'ri, to'g'ri! – deyishdi bolalar.

PIRLS topshiriqlarini yaratish jarayonida qiyidagi savol va topshiriqlar bo'yicha ishslash samarali hisoblanadi:

- 1.Sizningcha Qobil bilan Sobirning bahsiga nima sabab bo'ldi?
  - A.Ularning to'p talashishi
  - B.Ularning maqtanchoqligi
  - C.Qodirning papkasini yerga tushib ketganligi
- 2.Nima deb o'ylaysiz? Maqtanchoqlik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Hayotiy misollarda tushuntirib bering.

- 3.Hikoyadan itni tasvirlab bering!
  - A.Quloqlari dikkaygan
  - B.Tumshug'i buzoqnikiday yalpoq
  - C.Dumi tulkinikiday uzun
  - D.Hamma javoblar to'g'ri
- 4.Qodirning qo'rqligini qaysi voqealarda ko'rsatilgan?
  - A.Qodirning itdan qo'rqib , orqasiga qaramay qochganligida
  - B.O'qituvchisidan qo'rqib yolg'on gapirganligida
  - C.It ketgandan keyin ko'chaning bir chetidan qo'rqib kelishida
  - D.Hamma javoblar to'g'ri

5.Sobirning salbiy hislatlarini ko'rsating!

- A.Maqtanchoq,chaqimchi
- B.Dovyurak , kamtar
- C.Qo'rroq , chaqimchi
- B. Mehribon, rostgo'y

6.Nima deb o'ylaysiz ? Hikoyaning voqealariga nisbatan qaysi xalq maqollarini ishlatalishimiz mumkin? Ikkita misol keltirib, hikoya bilan bog'lang!

7.Qodir o'qituvchisiga kechikish sababini nima deb aytdi?

- A.It quvdi
- B.Dalada edim
- C.Uxlab qolibman
- D.Sababini aytmadni

8.Maqtanchoqlik qilib keyin hijolat tortgan Qodirning holati qanday edi? Siz ham shu holatga tushganmisiz?

9.Sizningcha, odamlar nima uchun yolg'on gapirishadi? Yolg'oni yaxshilik uchun ishlatalish mumkinmi?

- A.Qo'rroqligi uchun
- B.Odati borligi uchun
- C.Vaziyat taqazosi uchun
- D. Hammasi bo'lishi mumkin

10.Nima deb o'ylaysiz? Qodirning salbiy hislatlarga ega bo'lishida , qaysidir ma'noda yon atrofidagi odamlarning ham aybi bormi?

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'lilda o'quvchilarni PIRLS topshiriqlarini bajarishga o'rgatishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish kerak O'quvchilar birinchi navbatda matn mazmunini to'liq anglab yetishlari talab qilinadi. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llashi kerak. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi.O'qituvchi bunday jarayonni har bir dars davomida qo'llab borishi lozim. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS topshiriqlarini bajarishga o'rgatishda, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda va nutqiy savodxonligini oshirishda samarali hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни // <https://lex.uz/docs/-5013007>

6 – TOM 4 – SON / 2023 - YIL / 15 - APREL

2. ЮНЕСКО халқаро меъёрий хужжатлари //ўзбекча нашрининг масъул мухаррири Л.Сайдова. – Тошкент: Адолат, 2004. – Б. 19-б.
3. Ona tilini o'qib tushunish ko'nikmasini PIRLS mezonlari asosida shakllantirish..Pirls xalqaro baholash dasturi: nazariya va tadbiq etish istiqbollari. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent, 13-mart 2020-yil.
4. Matchonov.S va boshq. 4-sinf “O'qish kitobi”-Toshkent-2017
5. [WWW.ziyo.uz](http://WWW.ziyo.uz) sayti